

TALABALARDA IJTIMOIIY VA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdufatayev Sherjahon Abduazimovich* , Odilova Mohiniso Abduqahhor qizi**

***Guliston Davlat universiteti o'qituvchisi,**

****Guliston Davlat universiteti 2-bosqich talabasi**

O'zbekiston

abdufatayevsher94@mail.ru, odilovamohiniso@gmail.com

Annotatsiya: Maqola bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Talabalar va bo'lajak pedagoglarda kasbiy va ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda turli metodlarga asoslanish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, kasbiy kompetensiya, multimedia, kasbiy ta'lim, makrotexnologiya.

Технология развития социальной и профессиональной компетентности студентов

Аннотации: Статья посвящена развитию социально-профессиональной компетентности будущих учителей. Обсуждаются вопросы опоры на различные методы в формировании профессиональной и социальной компетентности студентов и будущих учителей.

Ключевые слова: компетентность, социальная компетентность, профессиональная компетентность, мультимедиа, профессиональное образование, макротехнология.

Technology for the development of social and professional competence in students

Annotation: The article is devoted to the development of social and professional competence in future teachers. The issues of relying on different methods in the formation of professional and social competence in students and future teachers are discussed.

Keywords: competence, social competence, professional competence, multimedia, vocational education, macrotechnology.

Jamiyat va madaniyatning rivojlanishi bugungi kunda ta'lim va tarbiya ishlarining qanday tartibda amalga oshirilayotganligiga bog'liq. Bu esa davlat ahamiyatiga ega ijtimoiy qonuniyatdir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, biz yoshlarni

chuqur bilimli bo'lib yetishishimiz bilan bog'liqligini unutmagan holda mahoratli pedagoglarni shakllantirishni asosiy maqsad qilib belgilab olishimiz zarur. Hozirda respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning taqdiri yoshlarning ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy fazilatlariga bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda o'zining tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z malakasini doimiy va mustaqil ravishda oshirib boradigan, har qanday masalaga ijodiy yondashib, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. [2:C9]

Axborot texnologiyalari asrida yashayotganimizga qaramasdan ta'lim jarayonida hali ham zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana olmayotgan pedagoglarni uchratamiz. Ko'plab pedagoglarimiz faoliyati faqat ma'ruza bilan cheklanib qolmoqda. Bo'lajak pedagoglar o'z oldilariga ta'lim jarayonini interfaol metodlar, multimedia, slayd, audio-video vositalari bilan boyitish uchun o'zlarida texnologik kompetentlikni, mahoratni shakllantirishni maqsad qilib olishlari shart. Buyuk rus pedagogi Y.A.Komenskiy "Eshitsam unutamani, ko'rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman" deb bejiz ta'kidlamagan.

Oliy ta'lim sifatini yaxshilash barkamol avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi bo'lajak pedagoglarni har tomonlama yetuk kadr bo'lib yetishishlarini kafolatlaydi. Bunga sabab, pedagogik kasb bir vaqtning o'zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbidir. Shaxs kamolotini boshqarish uchun kompetent bo'lish lozim. Shuning uchun ham o'qituvchining kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi bilan bir qatorda yuksak mahoratini ham ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida "Yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" ekanligi ko'rsatilgan [1, 6-b]

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimiga ahamiyat beradigan bo'lsak, pedagoglarning mahorati uning kompetentligi ta'limni sifatli amalga oshirish garovi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Inglizcha “competence” tushunchasi lug’aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish”ni yoritishga xizmat qiladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kompetensiya - muayyan fan bo’yicha talaba egallagan nazariy bilim , ko’nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan nazariy va amaliy masalalarni yechishda foydalanib , amaliyotda qo’llay olishidir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o’z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o’zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o’z amaliy faoliyatida samarali qo’llaydi

Ijtimoiy kompetensiya jamiyatda bo’layotgan voqea yoki hodisa, jarayonlarga dahldorlikni his qilish va ishtirok etishni ifodalaydi. Kasbiy mavqeyining o’sishiga intilish ham ijtimoiy kompetentlikning bir bo’lagi hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik

kompetentlik ta'lim tizimini boshqarish uchun muhim. Kompetentlikni "tajribaga ega bo'lgan kishi", "yaxshi biladigan inson" kabi ma'nolarni bildirishi eski adabiyotlarda ko'p izohlangan. Hozirda esa kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan vaziyatlarda, kutilmagan holatlarda o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanishga egalikni anglatadi.

Pedagog olim N.A.Muslimov ta'kidlab utganidek, "o'qituvchining kasbiy shakllanishi uning jamiyatdagi o'rni, talabaning oliy pedagogik ta'lim muassasasidagi majburiyatlari va vazifalariga bog'liq bo'lib, talabaning o'rni nisbiy tavsifga ega, biroq uning o'quv jarayonida ishtiroki, o'quv vazifalarining ma'lum minimumini bajarish kabi ma'lum belgilarga ega" [2, 23-b]

V.N.Vedenskiy fikricha "Kompetentlik- bu qandaydir shaxsiy tavsif, kompetensiya esa aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmuasidir". Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirsak, ijtimoiy kompetentlikning namoyon bo'lishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- komil inson sifatida ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish.
- axloqiy sifatlar, hayotiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.
- muammolarni hal etishda samimiy bo'lish.
- kreativ yondashish.
- ta'lim jarayonini amalga oshirishda zamonaviy usul, vositalardan maqsadli foydalana olish.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy va ijtimoiy kompetensiyasini baholash metodlari asosan, test va nazorat hisoblanadi. Ta'lim oluvchi yoshlarning kasbiy kompetensiyasini baholashadi nazoratlarning an'anaviy ta'lim tizimidagi nazoratlardan farqi, kasbiy kompetensiyasini baholashda bilim, ko'nikmalarning mavjudligi emas, balki o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish layoqatlari orqali baholanadi.

Talabalarning kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun real kasbiy va ijtimoiy vaziyatga o'xshash topshiriqlar ishlab

chiqish kerak. Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda turli metodlardan foydalaniladi. Hozir biz ularning ayrimlarini tahlil qilamiz:

O'z-o'zini ta'riflash metodi. Bunda talabalar o'z kompetensiyasini o'zlari ta'riflaydilar, bu ta'riflar esa boshqa talabalar va o'qituvchi tomonidan tasdiqlanadi. Bu metod baholanuvchi talabaning o'z kompetensiyalarini darajasini yozma ravishda o'zi baholashidir. O'z-o'zini ta'riflash metodi pedagogikaning boshqa ta'lim yo'nalishlari orasida kasb ta'limi yo'nalishiga ko'proq mos keladi, chunki ushbu yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar kompetentlarning turlari ko'p va xilma-xil, kompetentlikni rivojlantirish shakllari ham turlicha.

“Portfolio” metodi. Ushbu metod talabalarning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishini namoyon qiladigan materillar va ma'lumotlar to'plamidan iborat. Portfolio ularning ta'lim jarayonida erishgan natijalarini, olimpiadalar, tanlovlar, xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalardagi yutuqlaridan iborat bo'ladi.

Imitatsion topshiriqlar metodi. Imitatsion (taqlidga oid) topshiriqlar bo'lajak kasbiy faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan vaziyatlarni hal etishga qaratilgan topshiriqlardan iborat bo'ladi. Bu metodning mohiyati talabalarga qo'yilgan kasbiy vazifalarni mustaqil amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratish, kasbiy faoliyat muhitiga olib kirish orqali ularning ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalari mavjudligining dalillarini namoyon qilishdadir. Keltirilgan dalillar talaba tomonidan kasbiy faoliyatga tegishli bo'lgan vazifalarning yechilishi jarayonini kuzatish natijasida to'plab boriladi.

Biz yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz lozim. Tarixga nazar tashlasak, ona yurtimiz tuprog'ida qanchadan-qancha ma'rifatparvar siymolar, buyuk daholar yetishib chiqqanligini ko'ramiz. Biz kimning avlodlari ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Vatanimizni kelajagi bizning qo'limizda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzalarida ta'kidlagan quyidagi hikmatli so'zlari ham bejiz emas: “Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim.”

Inson qaysi kasb sohibi bo'lmasin o'z ishiga , mashg'ulotiga mehr bilan yondashsa, uning sirlarini mukammal egallaydi. O'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. Pedagog ham bolalarni sevsa, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi, pedagogga oid sifatlar kasb etib boradi. Kelajak yoshlarni qo'lida deyapmiz, demak biz xalqning ertangi kunimiz. Biz interfaol darslar tashkil etilishini xohlaymiz. Bunda o'qituvchining notiqlik san'ati, chiroyli so'zlash mahorati bizning diqqatimizni jalb qiladi. O'qituvchi-pedagoglarni hurmat qilamiz, chunki nihoyatda mas'uliyatli va sharaflı kasb. Bu kasbda kompetentlik muhim ahamiyatga ega. Kompetentlikni shakllantirish bilan bir qatorda hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri talabalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil holda fanga tegishli kerakli axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarini kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallagan holda tarbiyalashdan iboratdir. Bo'lajak pedagoglarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda o'z sohalariga doir barcha fanlarga oid bilim, ko'nikma va malakalarni dars jarayonlarida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Toshkent.1997
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmoni «Xalq so'zi», 2017 yil 8 fevral
- 3.Muslimov N.A., Abdullayeva K.M, Gaipova N.S. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Metodik qo'llanma Toshkent-2014 112b
- 4.Hasanboev J. Pedagogika fanidan izohli lug'at Toshkent-2008 149 b.
- 5.Abduquddusov O.A. Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda o'quv amaliyotining o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent 2016 yil 30-b.

